

CHAKKA BO'LAGI FUNKSIONAL ANATOMIYASI VA ZARARLANISH SINDROMLARI

Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligi texnikumi yetakchi
o'qituvchisi Egamberdiyeva Nazokat
Otaboyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada chakka bo'lagi funksional anatomiyasi va zararlanish sindromlari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: miya, silviy egatchasi, lateral

Chakka bo'lagi (lobus temporalis) bosh miya katta yarim sharlarining lateral yuzasida joylashgan. Uning lateral va medial yuzalari farqlanadi. Chakka bo'lagining lateral yuzasi peshona va tepa bo'lagidan Silviy egatchasi, ya'ni lateral egatcha orqali ajralib turadi. Chakka bo'lagida 2 ta egatcha (s. temporalis sup et inf) va 3 ta pushta (g. temporalis sup, medius et inferior) mavjud. Chakka bo'lagining pastki bazal yuzasida lateral ensa-chakka pushtasi (g. occipitotemporalis) joylashgan. Undan tepada, ya'ni chakka bo'lagining medial yuzasida g. occipitotemporalis medialis joylashgan. Bu ikkala pushtani bir-biridan s. occipitotemporalis ajratib turadi. G. occipitotemporalis medialis dan tepada sulcus collateralis (uning davomi s. rhinalis, burun egatchasi) joylashgan. Silviy egatchasi tubida orolcha (unsula) yotadi. Orolcha peshona, tepa va chakka bo'laklari bilan yuqoridan yopilgan. O'sha tomga o'xshab yopgich pushtani operculum deb atashadi. Orolchanning vazifasi ta'm bilish bilan bog'liq. Eshitish, hid bilish, ta'm bilish va sensor nutq, musiqal tovushlarni tahlil qilish – chakka bo'lagining asosiy funksiyalari. Chakka bo'lagining birlamchi maydoniga (proeksion soha) 41-maydon (Geshl pushtasi) kiradi. Geshl pushtasi yuqori chakka pushtasining tagida joylashgan va tashqaridan ko'rinmaydi.

XX asrning 60-yillarida olimlar ushbu pushtani elektrod yordamida ta'sirlantirishganda "Bemor qulog'imga turli xil tovushlar eshitilyapti" deb aytgan. Aslida unga hech qanday tovush bilan ta'sir ko'rsatilmagan. Shunda olimlar "Miyaning bu qismida tovushlarni qabul qiluvchi markaz joylashgan ekan" degan fikrga kelishgan va bu joyni birlamchi eshituv maydoni deb atashgan. Tovushlardan so'zlar va iboralar yasovchi maydonlar yuqori chakka pushtasida 22 va 42-maydonda joylashgan. Bu yerni akustik-gnostik markaz, ya'ni Vernike markazi deb atashgan. Bu soha zararlansa, sensor afaziya rivojlanadi. Vestibulyar analizator markazi (20 - 21-maydonlar) o'rta va pastki chakka pushtalarida joylashgan. Hidlov va ta'm bilish analizatori filogenetik nuqtai nazardan miyaning eng keksa qismlari – uncus va ammon shoxida (11-maydonlar) joylashgan. Ta'm bilish uchun shuningdek, g. postcentralis ning eng pastki qismi (43-maydon) va orolcha (uncus) javob beradi. Vernike markazi og'zaki nutqni tushunish va xotirada saqlashni ta'minlaydi. Yuqori chakka pushtasining o'rta qismida (22-maydon) musiqal tovushlarni anglash markazi joylashgan. Eshituv agnoziyasi. Eshituv analizatorining birlamchi maydoni, ya'ni 41-maydon zararlansa, markaziy karlik rivojlanmaydi, chunki eshituv retseptorlaridan kelayotgan signallar ikkala yarim sharda ham qabul qilinadi. Bemor tovushlarning baland-pastligini eshitadi, biroq tovush nimaga taalluqli ekanligini anglamaydi. Agar suvni oqizib qo'yib, bemordan bu nimaning tovushi deb so'ralsa, bu suvning tovushi ekanligini ayta olmaydi. Shu yerda eshituv analizatorining o'ziga xos xususiyatini aytib o'tish joiz. Neyropsixologiyada nutq tovushi va nutqqa aloqador bo'lmagan tovush farqlanadi. 1) Nutq tovushlari – harflar, so'zlar va iboralar bilan bog'liq tovushlar. Bunga chap chakka bo'lagi javobgar. 2) Nutqqa aloqador bo'lmagan (turli shovqinlar va musiqali tovushlar) – atrof-muhitdagi va inson nutqiga aloqador bo'lmagan tovushlar. Bunga o'ng chakka bo'lagi javobgar. Chap va o'ng chakka bo'laklari zararlanganda bir-biridan farq qiluvchi simptomlar rivojlanadi. Chap chakka bo'lagi zararlansa nutq tovushlarini analiz va

синтез qilish buziladi, nutqqa aloqador bo'lmagan (shovqin va musiqa) tovushlarni tahlil qilish esa o'ng chakka bo'lagi zararlanganda izdan chiqadi.

Chakka bo'lagi zararlangan bemor tovush turini ham, sonini ham farqlab aytib bera olmaydi. Bu holatni A.R. Luriya aritmiya deb atagan. Chap chakka bo'lagi zararlanganda sensor afaziya (akustik-gnostik afaziya), o'ng chakka bo'lagi zararlanganda amuziya rivojlanadi. Sensor afaziya negizida fonematik eshituv buzilishi yotadi. Fonematik eshituv – bu nutq tovushlarini farqlay olishdir. Sensor afaziyaning asosiy belgisi – bu nutqni tushunmaslik. Sensor afaziyada bemor o'z fikrini turli xil mimik harakatlar bilan ifodalashga urinadi. Ko'p so'zlaydi (logorreya). Amuziya – musiqal tovushlarni anglay olmaslik, bilmaslik. Ushbu sindrom o'ng chakka bo'lagi zararlanishi uchun xos. Akustik-mnestik afaziya – nutqqa aloqador bo'lgan so'zlar va iboralarni eslab qolish buzilishi sababli rivojlangan afaziya. Chunki har qanday nutq xotirada saqlab qolingan so'zlar asosida tuziladi. Ushbu xotira izdan chiqqanligi bois bemorda afaziya rivojlanadi. Bunday afaziya chap chakka bo'lagining mediobazal qismi zararlanganda paydo bo'ladi. Psixoemotsional buzilishlar. Chakka bo'lagining mediobazal qismi limbik sistemani tashkil qiluvchi tuzilmalar tarkibiga kiradi. Limbik sistema esa emotsional reaksiyalar uchun mas'ul. Shu bois ham chakka bo'lagining mediobazal qismi zararlansa, turli xil psixoemotsional buzilishlar rivojlanadi. Bular – qo'rquv, xavotir, depressiya, ba'zida eyforiya, kardiofobiya va boshqa vegetovisseral paroksizmlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. Darslik. –T.: 2010. 542 b.
2. Ibodullayev Z.R. Asab kasalliklari. Darslik. –T.: 2014-y. – 1000 b. 5. Ibodullayev Z.R. Asab va ruhiyat. Ilmiy-ommabop risola. 3-nashri. –T.: 2018. 232 b.
3. Ibodullayev Z.R. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik., 2-nashri. 2009. –T.: 393 b.